

Bobonazar Turobov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kino, foto, televideniye va radio" o'quv studiyasi rahbari
E-mail: turobovbobonazar23@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3345-9913*

"O'TOV" VA "IBLIS DEVORI" BADIY FILMLARIDAGI OPERATOR VA REJISSYOR TANDEMI

***Annotatsiya.** Maqolada "O'tov" va "Iblis devori" filmlarida operator va rejissyor tandemi faoliyati tahlil qilinadi. Vizual yechim, kadr qurilishi va yorug'lik vositalari orqali rejissyor g'oyasining ifodalanishi ko'rsatilib, ijodiy hamkorlikning badiiy natijaga ta'siri yoritiladi. Filmlarda milliylik, ramziy obrazlar va dramatik kuch uyg'unligi asosiy e'tiborga olinadi.*

***Kalit so'zlar:** o'zbek kinosi, rejissyor, operator, vizual yechim, badiiy ifoda, kamera harakati, yorug'lik, dramatik kuch, milliy obraz, film tahlili, ijodiy tandem.*

ТАНДЕМ ОПЕРАТОРА И РЕЖИССЁРА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМАХ «ЮРТА» И «СТЕНА ДЬЯВОЛА»

***Аннотация.** В статье анализируется творческое сотрудничество режиссёра и оператора в художественных фильмах «Юрта» и «Стена дьявола». Показывается, как с помощью визуальных решений, построения кадра и освещения раскрывается режиссёрская идея. Особое внимание уделяется национальному колориту, символическим образам и гармонии драматической выразительности.*

***Ключевые слова:** узбекское кино, режиссёр, оператор, визуальное решение, художественная выразительность, движение камеры, освещение, драматическая сила, национальный образ, анализ фильма, творческий тандем.*

THE DIRECTOR AND CINEMATOGRAPHER TANDEM IN THE FEATURE FILMS "O'TOV" AND "THE DEVIL'S WALL"

***Abstract.** The article analyzes the collaboration between the director and the cinematographer in the films "O'tov" and "The Devil's Wall". It highlights how*

visual solutions, frame composition, and lighting techniques express the director's vision. Special attention is given to national identity, symbolic imagery, and the harmony of dramatic impact.

Keywords: *uzbek cinema, director, cinematographer, visual solution, artistic expression, camera movement, lighting, dramatic impact, national imagery, film analysis, creative tandem.*

Zamonaviy o'zbek badiiy kinosidagi tasviriy yechim taraqqiyotida operator va rejissyor tandemi, ijodiy hamkorligi muhim hisoblanadi. Dramatik to'qnashuvlar, obrazlar ichki dunyosini ochib berish va voqea makonining ishonarliligi tasvir orqali ifodalanadigan filmlarda sahnalashtiruvchi operator qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kinooperator A.Arziqulov ijodi misolida ushbu hamkorlikning samarali natijalarini ko'rish mumkin. U ijod qilgan "O'tov" (rejissyor A.Shahobiddinov) va "Iblis devori" (rejissyor Y.Sa'diyev) filmlarida tasviriy yechimlar syujetni kuchaytiradi, obrazlarning ichki kechinmalari, tarixiy va ijtimoiy fonni ham yuksak badiiylilikda ochib beradi. Ushbu maqolada aynan shu ikki film misolida operator va rejissyor tandemi ijodiy hamkorligining tasviriy yechimga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

"O'tov" filmi o'zbek milliy identitetini o'rganish, muqaddas qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatni poetik tarzda tasvirlashga qaratilgan badiiy film sifatida e'tiborni tortadi. Filmida tasviriy til orqali makon, ichki holat inson va tabiat, inson va o'z-o'zi o'rtasidagi ruhiy munosabat ochib beriladi. A.Arziqulovning operatorlik yondashuvida tabiiy makon bilan dramatik tuyg'ularni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ochiq kadrlar, keng planlar, past rakursda olingan uzun kamera harakatlari orqali tabiatning abadiyati va insoniy kechinmalarning vaqtinchaligini qarama-qarshi qo'yadi. Keng bo'shliqlar obrazlar ichki iztiroblarini kuchaytiruvchi metaforik fon sifatida xizmat qiladi.

Rejissyorning poetik niyati operator tasvirida mutanosib tarzda ifodalanadi. Yorug'likdan foydalanishda ortiqcha dramatisatsiyadan qochilgan, quyosh nurlari yoki soya orqali obrazning sokinligini, ichki urinishini ifodalovchi yumshoq, tekis

yoritish uslubi qo'llanilgan. Kamera harakati esa harakatdan ko'ra kuzatuvchi va mushohada qiluvchi holatida, ya'ni ichki sukut holatiga moslashtirilgan. Filmda sahna muhitining kompozitsion qurilishi ham muhim ahamiyatga ega. Har bir kadrda harakat u istalgancha kam bo'lsin har doim joy, fazo va vaqtga nisbatan uyg'un holatda kadr ichidagi kompozitsion kuch nuqtasiga tayanadi. Bu esa filmning umumiy hissiy ifodasiga izchillik beradi. Operatorning obyektiv qarashi tomoshabinni hikoyaga jimgina guvoh emas, balki ruhiy hamdard sifatida jalb etadi.

“Iblis devori” ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy bosimlar fonida shaxsiy tanlovlar, ruhiy isyon va fojeani tasvirlovchi qatlamli badiiy asar. Ushbu filmda operatorlik qarashi oddiy kuzatuvdan ko'ra ko'proq ruhiy tahlilchi sifatida ishlaydi. Har bir rakurs, har bir rang, har bir nur va soya sahna dramatismini kuchaytirishga xizmat qiladi. A.Arziqulov bu filmda ekspressiv imkoniyatlarini to'laqonli ishga solgan. Kameraning harakatchanligi, titroq harakati yoki aniqlikdagi keskin o'zgarishlar orqali syujetda ortib borayotgan ichki bosim va ziddiyat tomoshabinga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarzda aks ettirilgan.

Film rang gammasida ko'p hollarda sovuq tonlar ko'k, kulrang, yashil to'qlari ustuvorlik qiladi. Yorug'lik esa noaniq, ko'pincha dramatik kontrastlarda, ayrim hollarda orqa yoritilgan yoki faqat yon manbadan berilgan bo'ladi. Bu obrazlarning ichki ziddiyatini kuchaytiradi, hatto ayrim kadrlar qorong'ulik bilan yuvilib ketgan, bu esa g'am, tahdid, xavotir hissiyotlarini uyg'otadi. Rejissyorning qatlamli dramatik g'oyasi operator tomonidan tafakkur darajasidagi vizual yondashuv bilan uyg'unlashtirilgan. Masalan, asosiy qahramonning ichki isyoni uning harakatida emas, kamera va yorug'lik unga qanday munosabatda bo'layotganida ko'rinadi. Tasvir unga yaqinlashganda ham, uni ifodalovchi nuqtayi nazar emas, kuzatayotgan jamiyat nigohi sifatida ishlaydi. Bu esa filmni yanada falsafiy va murakkab qiladi.

Rejissyor va sahnalashtiruvchi operator o'rtasidagi hamkorlik darajasi filmning badiiy sifati va yaxlitligini belgilab beruvchi muhim omillardandir. “O'tov” va “Iblis devori” filmlarida aynan bu tandemning uzviyligi, vizual va dramatik ifoda vositalaridagi uyg'unlik asosiy kuch bo'lib xizmat qilgan. Rejissyorning

dramaturgik niyati tasvir orqali to'liq ifodalanadi, operator esa o'z navbatida ushbu niyatga murakkab kompozitsion va yorug'lik yechimlari bilan chuqurlik kiritadi.

Tasvirdagi rang va yorug'lik kompozitsion elementlar, mazmun qatlamlarining eng chuqur darajada ishlovchi hissiy vositalaridir. Har bir rangning, har bir soyadagi nur yoki qorong'ilikning o'z dramatik vazifasi bo'ladi.

“O'tov” filmida yorug'lik tabiiy, issiq va keng. Ko'pchilik sahnalar “oltin soat” deb ataladigan, quyosh chiqish yoki botish paytlarida suratga olingan. Bu esa vizual ilqlik, hayotiy muvozanat va osoyishtalik hisini beradi. Ranglar esa tuproq ranglariga yaqin: och jigarrang, sarg'ish va oqish tuslar ustuvor. Ular o'z navbatida milliy muhit, cho'l hayoti, hayotning soddaligi bilan uyg'unlashadi. Bu filmida yorug'lik ham personaj, u hayotni davom ettiruvchi kuch sifatida ishlatiladi.

“Iblis devori” filmida esa ranglar sovuq, kontrastli. Ko'p hollarda kul rang, yashil-siyohrang tuslar ustuvorlik qiladi. Yorug'lik asosan yon yoki orqa tarafdin keladi, bu esa personaj yuzidagi soya va nur o'yinini kuchaytiradi. Ko'pgina sahnalarda chiroqlar yoki tabiiy bo'lmagan nur manbalari ishlatilgan. Bular orqali ijtimoiy bosim, ichki tartibsizlik, hissiy beqarorlik kabi holatlar kuchaytiriladi. Yorug'lik dramaturgiyasi orqali operator har ikki filmida turli ma'naviy manzaralarni yaratishga erishgan. Bu esa sahnalashtiruvchi operatorlik san'atida tasviriy tafakkur qanchalik kuchli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

“O'tov” va “Iblis devori” filmlarining tasviriy yechimlarini tahlil qilish orqali shuni aniq aytish mumkinki: sahnalashtiruvchi operator va rejissyor tandemi zamonaviy o'zbek kinosining eng muhim ijodiy jarayondan biridir. Bu hamkorlik yakuniy natijaning sifati, hissiy kuchi va dramatik ta'sirchanligini belgilab beradi. A.Arziqulovning bu ikki filmida bajargan operatorlik ishlari, rejissyor g'oyalarini tasvirlash, ularni yangi vizual qatlamlar bilan boyitish, ifoda kuchini oshirish borasida mustaqil badiiy tafakkurni namoyon etadi. U texnik ijrochi, kompozitsiya mazmuni muallifi, dramaturgik hamkor sifatida qaralmoqda. Bugungi o'zbek kinosi uchun bunday uyg'unlik namunasi juda dolzarb. Chunki mustaqil tafakkurga, badiiy sezgirlikka ega sahnalashtiruvchi operatorlar bilan ishlaydigan rejissyorlar milliy

kinoni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, operator va rejissyor tandemi bugungi kun kinotexnologiyasi, badiiy maktab, dunyoqarashning birlashgan tizimi sifatida tahlil qilinmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, "O'tov" va "Iblis devori" badiiy filmlarida rejissyor va operatorning ijodiy hamkorligi filmning badiiy-estetik yaxlitligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Rejissyor tomonidan ilgari surilgan g'oya va dramaturgik mazmun operatorning tasviriy yechimlari, kadr kompozitsiyasi, kamera harakati, rakurs, planlar hamda yorug'likdan foydalanish usullari orqali vizual ifodasini topadi.

Har ikki filmda tasviriy vositalarning dramaturgik vazifa bilan uyg'unlashuvi qahramonlarning ruhiy holatini ochish, voqealar rivojida dramatik kuchni oshirish va tomoshabinning film mazmunini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yorug'lik va rang, makon va kadr kompozitsiyasi, kamera harakatlari hamda ramziy obrazlardan foydalanish rejissyorlik konsepsiyasining vizual jihatdan to'laonli ifodalanishiga imkon yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соколев Р. Александр Довженко. – Москва: Искусство, 1980. – 304 с.
2. Тешабаев Д. Камил Ярматов. – Москва: Искусство, 1964. – 120 с.
3. Косматов Л. Операторское мастерство. – Москва: Искусство, 1962. – 168 с.
4. Соколов А. Монтаж. Телевидение, кино, видео. – Москва: Аспект-Пресс, 2005. – 204 с.
5. Файзиев Н. Овозсиз кинематографдаги операторлик санъати тарихидан. – Тошкент: УзДСИ, 2008. – 128 б.
6. Исмаилов А., Салиев М. Витторио Стораро. Живопись со светом. – Тошкент: УзДСИ, 2004. – 126 с.
7. Исмаилов А. Кинооператорское мастерство. – Тошкент: УзДСИ, 2004. – 420 с.